Arabian Journal of Science

ISSN:2308-5703

Impact factor:13.5 *International Multidisciplinary Online Journal* May, 2026

THE STORY OF "THE MERCHANT AND THE DIVERS" FROM "LISON UT-TAYR" CHAPTER LXVIII [CHAPTER 68]

Jo‘rayeva Dilovarxon

dilovarxonjorayeva05@gmail.com

Student at Kokand State University

Abstract: This article analyzes the artistic and philosophical content of the story about the merchant and the divers in the work of Lison ut-tayr and the spiritual ideas in it. The importance of teaching the story based on modern pedagogical approaches and its role in developing students' thinking are highlighted.

Keywords: Lison ut-tayr, Alisher Navoi, merchant and divers, mysticism, artistic analysis, spiritual maturity, moral education, classical literature, pedagogical approach.

Alisher Navoiyning Lison ut-tayr dostoni inson ruhiyati va ma’naviy kamolotini yorituvchi hikoyatlarga boydir. Asar tarkibidagi savdogar va g‘avvoslar haqidagi hikoyatda insonning boylik, mashaqqat va maqsad sari intilishi ramziy tarzda ifodalangan. Ushbu hikoyatni zamonaviy ta’lim usullari asosida o‘qitish o‘quvchilarning asar mazmunini chuqur anglashi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

T/r	ASLIYAT	NASRIY BAYONI
1.	Sohili Ummonda **savdopesha** xayl, **Bahr** savdosida **sudandesha** xayl.	**Sohilda dengiz** savdosida **foyda topishni ko'zlagan savdogarlar** ko‘p edi.
2.	Bersalar besh-o'n diram, g'avvosi **dun,** Bahr ichra solur o'zni **sarnigun.**	Ular g’avvoslarga besh - o‘n dirham pul bersalar, **pastkash** g’avvoslar **boshini quyi solib** o‘zini dengiz tubiga solar edi.
3.	Jonni yuz **ranj** o'qiga aylab **hadaf,** Bahr qa'rinda iliklar bir sadaf.	O‘z jonlarini yuz **mashaqqat** o'tiga duchor qilgan bu g'avvoslar dengiz qa'ridan bir sadaf izlaydilar.
4.	Ul sadaf ichra anga ming donadur, Yo agar xud bir duri **shohonadur.**	Ular topib chiqqan o‘sha sadaf mingtadan bir o‘zgachasi yoki **shoxlarga munosibi** bo‘lishi mumkin.
5.	Kim erur ul shoh toji **ravnaqi,** Ongla oni **muzd** berganning haqi.	G’avvoslar ming mashaqqat bilan olib chiqqan dur podsholar tojini **bezovchi** qimmatbaho shohona bo'lsada, g'avvosga **haq** to'laganning mulki hisoblanadi.
6.	**Tojir** olib ul sifat naqdi aziz, **Axz etib** g'avvos bir-ikki **pashiz.**	**Savdogar** haqiqiy gavharni **qo'lga kiritadi,** g'avvos esa arzimaydigan bir-ikki **chaqagani.**
7.	“Ul olib muzdu sanga ul dog'i yo'q,	“G'avvos-ku, o'z haqini oladi, ammo senga o'sha ham yo'q. It kabi **suyak** bilan nafsingni to'q

	It kibi aylab **so'ngak** nafsingni to'q.	tutasan.
8.	Oqil ersang ko'p dema mundoq **gazof,** Kim **sarosar** bu so'zung bordur xilof".	Oqil bo'lsang, bunday **behuda** so'z aytma, chunki bu so'zlaring **boshdan-oyoq** haqiqatga xilofdir".

ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" DOSTONIGA KIRITILGAN "SAVDOGAR VA G'AVVOSLAR " HIKOYATINI QUYI SINF O'QUVCHILARIGA O'RGATISH USULI

Dars maqsadi: O'quvchilarga matn mazmunini tushuntirish, savdogar va g'avvos obrazlarini tahlil qilish. Asosiy g'oyani aniqlash halollik, adolat, mehnatning qadri haqida tushuncha berish. Boshqalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish.

Kirish: Dasrning avvalida o'qituvchi bugun o'rganilishi lozim bo'lgan hikoyatning mavzu va g'oyasi haqida qisqacha m'lumot beradi: " Savdogar va g'avvoslar " haqidagi hikoyatda adolatsizlik va insoniy munosabat buzilishi mavzusi talqin etilganligi tushuntiriladi.

1-BOSQICH. O'QUVCHILARNI DARSGA QIZIQTIRISH

1."Aqliy hujum" metodi

Ushbu metod o'quvchilarda erkin va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, faollikni oshiradi. Tafakkur tezligi va muloqot va hamkorlik ko'nikmasini shakllantiradi.

Savollar:

1.Dengizdan nima topish mumkin?

2.Mehnat qilgan odam qanday bo'ladi?

Adolat deganda nimani tushunasiz?

2- BOSQICH. ASOSIY QISM.

1. "Muammoli vaziyat" metodi

O'quvchilar ushbu metod orqali tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi, mustaqil xulosa chiqarishga yordam beradi.


Doskaga savol yoziladi:"Agar siz dengiz qa'riga tushib gavhar topsangiz, lekin uni boshqa odam olib qo'ysa, o'zingizni qanday his qilardingiz?"

O'quvchilar bir daqiqa o'ylaydi, keyin juftlikda fikr almashadi.

2."Qahramonlarni solishtirish" (Venn diagramma).

Ushbu diagrammada o'quvchilar har bir qahramonni alohida tahlil qiladi. Jadvaldagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi, so'ng Venn diagrammada ikki doirani chizib, o'xshash jihatlarni kesishgan qismga, farqlarini esa alohida qismlarga yozadi.

Mavzu: Savdogar va g'avvos munosabati.



Topshiriq: Quyidagi jadvalni to‘ldiring va ma’lumotlar asosida Venn diagrammasini chizing.

T/r	Savdogar va g’avvos obrazlarining salbiy va ijobiy fazilatlari	Savdogar	G’avvos	O’xshash jihatlari
1	**Afzalligi (ijobiy tomoni)**	Savdoni tashkil qiladi, mablag’ sarflaydi, foyda olish yo‘lini topadi	Mehnatkash, jasur, xavfga boradi, sabrli	ikkalasi ham boylik orttirishni istaydi
2	**Kamchiligi (salbiy tomoni)**			
3	**Foydasi**			
4	**Zarari**			

3. “Wordwall” elektron progammasi asosidagi metod.

Anagramma asosidagi elektron o‘yin o‘quvchilarning diqqatini va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. U so‘zlarni to‘g’ri yozish orqali lug’at boyligi hamda imlo savodxonligini mustahkamlaydi. Bu metod o‘quvchilarning faolligi va darsga qiziqishini oshiradi.

Topshiriq: berilgan harflarni to‘g’ri tanlash orqali hikoyatga oid so‘zlarni toping.

https://wordwall.net/resource/107593430

3-BOSQICH. YAKUNLOVCHI BOSQICH.

1. “Reflektsiya” metodi

Reflektsiya metodi o‘quvchilarga o‘z fikrini tahlil qilish va baholash imkonini beradi. U darsda o‘rganganlarini anglab yetish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda o‘zini yaxshilashga yordam beradi. SHu orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Topshiriq: Quyidagi uchta savol bo‘yicha o‘z fikrlaringizni daftaringizga (yoki maxsus tarqatilgan reflektsiya qog’ozlariga) yozma ravishda qayd eting:

1. Bugun nimani bildim?

2. Qanday xulosa qildim?

3. Hayotda nimaga amal qilaman?

Har bir o‘quvchi fikri eshitilgach, o‘qituvchi yakunlovchi xulosa beradi.

ALISHER NAVOIYNING “LISON UT-TAYR” DOSTONIGA KIRITILGAN “XAZINA IZLAGAN DEVONA KISHI” HIKOYATINI YUQORI SINF O’QUVCHILARIGA O’RGATISH USULI

Dars maqsadi: hikoyatdagi ijtimoiy va axloqiy g’oyalarni ochish

O’quvchilarda mustaqil axloqiy pozitsiya shakllantirish ramziy obrazlarni zamonaviy hayot bilan bog’lash

Kirish: o‘qituvchi hikoyat qisqacha mazmunini eslatadi va shuni ta’kidlaydi:

Bu hikoyat oddiy savdo haqida emas, balki jamiyatdagi kuch va mehnat o‘rtasidagi tafovut haqida.

1-BOSQICH: O’QUVCHILARNI DARSGA QIZIQTIRISH

1.“Muammoni top” metodi

“Muammoni top” metodi o‘quvchilarga vaziyat yoki matndagi asosiy muammoni aniqlashga yordam beradi. U o‘quvchilarning diqqatini jamlash, mantiqiy fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. SHu orqali ular sabab–oqibatni tushunib, mustaqil xulosa chiqarishni o‘rganadi.

Topshiriq: Berilgan variantlardan birini tanlang va nima uchun aynan shu muammo hikoyatda yetakchi ekanligini isbotlang.

Matn o‘qilgach, o‘quvchilarga savol beriladi: hikoyatdagi asosiy muammo nima?

O’quvchilar javob variantlarini taklif qiladi:

1. Adolatsizlik

2. Mehnatning qadrsizlanishi

3. Boylikning noto‘g’ri taqsimlanishi

So‘ng umumiy muammo aniqlanadi.

2. Klaster tuzilmasi

Ushbu metod o‘quvchilarga ma’lumotlarni tartibga solish va bog’lash imkonini beradi. U o‘quvchilarning fikrini tizimli shakllantiradi, asosiy va qo‘shimcha tushunchalarni ajratishni o‘rgatadi hamda mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Topshiriq: quyida keltirilgan klaster usulidan foydalanib yangi klaster ko‘rinishini yarating. Unda quyidagi klaster usulida keltirilmagan tushunchalardan foydalaning.



3.“Insert” metodi

“Insert metodi” o‘quvchilarga matnni diqqat bilan o‘qish va asosiy ma’lumotlarni ajratib olish imkonini beradi. U o‘quvchilarning tushunish, tahlil qilish va faol o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda matn mazmunini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

Metodning natijasi:

O’quvchi matnni passiv emas, faol o‘qiydi. O’z bilimini solishtiradi, tanqidiy fikrlash rivojlanadi va ularda savol berish madaniyati shakllanadi.

Topshiriq: Matnni o‘qish jarayonida quyidagi belgilarni qo‘yib boring va anashu ma’lumotlarni jadvalda keltiring.

V – oldindan bilgan yoki tasdiqlangan ma’lumot

+ – siz uchun yangi ma’lumot

– – fikringizga zid yoki bahsli ma’lumot

? – savol tug’dirgan yoki tushunarsiz joy

T/r	**«V» Bilganimni tasdiqladi**	**«+» Yangi ma’lumot**	**«–» Zid yoki bahsli fikr**	**«?» Savol tug’ildi**
1	Hayotda mehnat qilgan odam kam haq olishi mumkin	Gavhar topilsa ham g’avvosga tegmasligi	Mehnat qilgan odam foyda ko‘rmasligi	Nega g’avvos bu shartga rozi?
2	Boylik ko‘pincha kuchli tomonda bo‘ladi	Savdogar deyarli xavf qilmaydi	Adolat tamoyili buzilgan	Bu holat bugungi jamiyatda bormi?
3				
4				
5				
6				
7				
8				

3. “Learning apps” elektron progammasi asosidagi metod

Mazkur anagrammadan o‘quvchilar elektron doska, kompyuter uskunsi yoki mobil aloqa vositalari roqali foydalanadi.

Topshiriq: berilgan atamalarni izohlari bilan birlashtiring.

Metod o‘quvchilarga so‘zlarning ma’nosini anglash va lug’at boyligini oshirishga yordam beradi. SHu bilan birga, tafakkur va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ma’naviy qadriyatlarni tushunishga yordam beradi.

https://learningapps.org/watch?v=pftarifkn26

3-BOSQICH: YAKUNLOVCHI BOSQICH.

“Davomini top” metodi

Darsning yakuniy qismida o‘quvchilar hikoyat matni bilan yaqindan tanishib, hikoyat mavzusida ko‘tarilgan mavzu va g’oyani anglab yetgach, dars jarayonida o‘rganib anglaganlari yuzasidan xulosa aytishlari kerak.

O’qituvchi boshlaydi, o‘quvchilar tugatadi:

1. Haqiqiy baxtga erishish uchun...

2. Boylikning foydasi shundaki, agar u...

3. Qanoatli inson har doim...

Har bir o‘quvchi fikri eshitilgach, o‘qituvchi yakunlovchi xulosa beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy.-T.:Akademnashr,2011.

2.Sirojiddinov Sh. Yusupova D.Davlatov O.Navoiyshunoslik.-T.:Tamaddun,2018.

3.Saidakbarova M. Tasavvuf va mumtoz poetika asoslari.-T.:2023.

4.Shamsiyev P.Ibrohimov S.Navoiy asarlari lug‘ati.-T.:G‘afur G‘ulom,1972.

5.Navoiy A.Lison ut-tayr.-T.:G’afur G’ulom,2005.

6. Nurbayeva.M. Alisher Navoiy ijodida ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi.-T.:Fan,2007.

7. Yusupova D. Aruz va mumtoz poetikaga kirish.-T.:Malik Print Co,2021.

8.Quronov D.Adabiyotshunoslikka kirish.-T.:Fan,2007.

9.https://uz.wikipedia.org/wiki/Lison_ut-tayr